

Journal of **PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH**



PEDAGOGIK VA FILOLOGIK TADQIQOTLAR JURNALI

→ **QABUL FANLARI**

Pedagogik fanlar

Filologik fanlar



innopublication.com





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

**PEDAGOGIK VA FILOLOGIK TADQIQOTLAR JURNALI-ilmiy-uslubiy jurnali
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Ushbu to'plamda “ **PEDAGOGIK VA FILOLOGIK TADQIQOTLAR JURNALI**” ilmiy-uslubiy jurnalining 2026-yil 6-soniga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Bosh muharrir: JUMAYEVA SANOBAR ABSAATOVNA - Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Pedagogika kafedrası dotsenti, Phd

Jurnal quyidagi sohalarda maqolalar qabul qiladi:

Pedagogika fanlari

Filologika fanlari

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, Google Scholar, Zenodo, Open Aire, Sindex xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

Jurnal materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollej o'quvchilari, maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar

“INNOVATIVE PUBLICATION” MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI





**THE ROLE OF A GENDER APPROACH IN DEVELOPING
CRITICAL THINKING SKILLS AMONG FEMALE STUDENTS IN
HIGHER EDUCATION**

Scientific supervisor: Norboyev Farhod Chorshanbiyevich

Teacher of Termez State Pedagogical Institute

Sidikova Shakhribonu Adkhamovna

Student of Termez State Pedagogical Institute

[*shakhribonu03@gmail.com*](mailto:shakhribonu03@gmail.com)

Abstract

This article examines the role of a gender approach in developing critical thinking skills among female students in higher education. The gender approach aims to eliminate gender stereotypes, discrimination, and unequal opportunities that female students face in the learning process. The article analyzes the impact of the gender approach on the development of critical thinking among female students, issues of ensuring gender equality in curricula and teaching methods. The research results provide recommendations for introducing a gender approach in higher education institutions to develop critical thinking among female students and ensure their active participation in society.

Keywords

gender approach, critical thinking, female students, higher education, gender equality, education, curricula, teaching methods.

**OLIY TA'LIMDA TALABA QIZLARNING TANQIDIY TAFFAKKURINI
RIVOJLANTIRISHDA GENDER YONDASHUVNING O'RNI
РОЛЬ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ КРИТИЧЕСКОГО
МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОК В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ**

Ilmiy rahbar: Norboyev Farhod Chorshanbiyevich

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH**
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Научный руководитель: Норбоев Фарход Чоршанбиевич

Преподаватель Термезского государственного педагогического института

Termiz Davlat Pedagogika Instituti talabasi

Sidikova Shahribonu Adhamovna

Студентка Термезского государственного педагогического института

Сидикова Шахрибону Адхамовна

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'limda talaba qizlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda gender yondashuvning ahamiyatini o'rganiladi. Gender yondashuv talaba qizlarning ta'lim olish jarayonida duch keladigan gender stereotiplari, kamsitishlar va imkoniyatlar tengsizligini bartaraf etishga qaratilgan. Maqolada gender yondashuvning talaba qizlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga ta'siri, o'quv dasturlari va o'qitish metodlarida gender tenglikni ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida gender yondashuvni joriy etish orqali talaba qizlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish va ularning jamiyatda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: gender yondashuv, tanqidiy tafakkur, talaba qizlar, oliy ta'lim, gender tenglik, ta'lim, o'quv dasturlari, o'qitish metodlari.

Аннотация: Данная статья исследует роль гендерного подхода в развитии критического мышления студенток в высшем образовании. Гендерный подход направлен на устранение гендерных стереотипов, дискриминации и неравенства возможностей, с которыми сталкиваются студентки в процессе обучения. В статье анализируется влияние гендерного подхода на развитие критического мышления студенток, вопросы обеспечения гендерного равенства в учебных программах и методах обучения. Результаты исследования предлагают рекомендации по внедрению гендерного подхода в высших учебных заведениях для развития критического мышления студенток и обеспечения их активного участия в обществе.





JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH

VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Ключевые слова: гендерный подход, критическое мышление, студентки, высшее образование, гендерное равенство, образование, учебные программы, методы обучения.

KIRISH

Tanqidiy fikrlash – bu insonning ma'lumotlarni chuqur tahlil qilishi, ularni baholashi va asosli qarorlar qabul qilish jarayonidir. Ushbu jarayon davomida shaxs dalillarni o'rganadi, turli fikrlarni solishtiradi, mantiqiy xulosalar chiqaradi hamda o'z qarashlarini aniq shakllantiradi. Talaba qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ularning o'zini anglash darajasini oshiradi, muammolarni samarali hal etish ko'nikmasini shakllantiradi va jamiyatdagi faolligini kuchaytiradi.

ASOSIY QISM

Ta'limda gender yondashuvining ahamiyati. Gender yondashuvi ta'lim jarayoniga yangicha qarashni olib kiradi. Ushbu yondashuv orqali qizlar va o'g'il bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratilib, ularning individual salohiyatini rivojlantirishga sharoit tug'diriladi. Ayniqsa, talaba qizlarning ta'limdagi faolligini oshirish maqsadida turli pedagogik strategiyalar ishlab chiqilgan.

Gender yondashuvi talaba qizlarga o'z fikrlarini erkin bayon qilish, mustaqil qarorlar qabul qilish va jamiyatdagi dolzarb muammolarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash imkonini beradi. Shu sababli, bu yondashuv tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.[1].

Talaba qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari

1. Interfaol ta'lim usullari

Interfaol metodlar talaba qizlarning faolligini oshiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Guruhli ishlash, bahs-munozaralar hamda rolli o'yinlar orqali talabalar turli fikrlarni muhokama qiladi, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tahlil qiladi. Bu esa ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.[2].

2. Raqamli texnologiyalar va onlayn resurslar





JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida muhim vosita hisoblanadi. Onlayn platformalar, bloglar va forumlar orqali talaba qizlar fikr almashish, muhokama qilish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon ularning mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini kuchaytiradi.

3. Muammo asosida o'qitish

Muammoli vaziyatlarga asoslangan o'qitish usuli real hayotiy masalalarni yechishga qaratilgan. Talaba qizlar muammoni aniqlaydi, uni tahlil qiladi va yechim variantlarini ishlab chiqadi. Natijada ular asosli xulosa chiqarishga o'rganadi.

4. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar

Maxsus topshiriqlar, testlar va amaliy mashg'ulotlar orqali talaba qizlar o'z fikrlarini mantiqiy asosda ifodalashni o'rganadi. Bu mashqlar ularning tahliliy va baholash qobiliyatini rivojlantiradi.

Gender stereotiplari va ularning ta'siri

Talaba qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida gender stereotiplari va kamsitishlarga qarshi kurashish muhim ahamiyatga ega. Ba'zi ijtimoiy qarashlar qizlarning o'z fikrini erkin ifoda etishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlashga qaratilgan maxsus dasturlar va treninglar tashkil etish zarur.[3].

Talaba qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat ularning o'qishdagi muvaffaqiyatini oshiradi, balki ularni ongli, mas'uliyatli va faol shaxs sifatida shakllantiradi. Gender yondashuviga asoslangan ta'lim metodlari bu jarayonni samarali tashkil etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar talaba qizlarning kelajakdagi ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.[4].

Oliy ta'lim tizimida talaba qizlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tanqidiy tafakkur nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni tahlil qilish, solishtirish, mustaqil xulosa





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

chiqarish va asoslangan qaror qabul qilish jarayonlarini ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonda gender yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u ta'lim jarayonida mavjud ijtimoiy stereotiplar, tengsizliklar va psixologik to'siqlarni aniqlash hamda bartaraf etishga xizmat qiladi.

Gender yondashuv talaba qizlarning o'z fikrini erkin ifoda etishiga, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga va o'quv jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi. Ko'plab hollarda jamiyatda mavjud bo'lgan an'anaviy qarashlar qizlarning faolligini cheklashi, ularning tanqidiy fikrlash imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bois, ta'lim jarayonida gender tenglikni ta'minlash, barcha talabalarga teng imkoniyatlar yaratish orqali qizlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi.[5].

Pedagogik jarayonda gender yondashuvni qo'llash interfaol metodlardan foydalanishni talab etadi. Munozara, debat, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, loyiha asosida o'qitish kabi usullar talaba qizlarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Bunday metodlar orqali ular nafaqat bilim oladi, balki turli nuqtai nazarlarni solishtirish, dalillarni tahlil qilish va o'z fikrini asoslab berish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ayniqsa, kichik guruhlarda ishlash jarayonida qizlarning faolligini oshirish va ularni liderlikka undash muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Bundan tashqari, o'qituvchining roli ham muhimdir. U gender sezgirlikka ega bo'lishi, barcha talabalarni teng rag'batlantirishi, baholash jarayonida adolatli bo'lishi lozim. O'qituvchi tomonidan yaratilgan psixologik qulay muhit talaba qizlarning o'z fikrini erkin bayon etishiga imkon beradi. Bu esa tanqidiy tafakkurning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.[6].

Oliy ta'limda o'quv dasturlarini gender nuqtai nazaridan takomillashtirish ham muhim yo'nalishlardan biridir. Darsliklar va o'quv materiallarida ayollar roli va ularning jamiyatdagi o'rnini kengroq yoritilishi, muvaffaqiyatli ayol obrazlari misol tariqasida keltirilishi talaba qizlarda motivatsiyani kuchaytiradi. Bu esa ularning o'z salohiyatiga





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

bo'lgan ishonchini mustahkamlab, faol fikrlashga undaydi.

Shuningdek, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Raqamli platformalar, onlayn munozaralar va ochiq ta'lim resurslari orqali talaba qizlar turli manbalarni o'rganish, ularni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning analitik fikrlash ko'nikmalarini yanada rivojlantiradi.

Talaba qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari va gender yondashuvi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular birgalikda zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Gender tengligini ta'minlash, qizlarni o'z fikrlarini erkin ifoda etishga, mantiqiy va tanqidiy qarorlar qabul qilishga undash orqali, ularning akademik, ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam beradi. Bu esa jamiyatning barcha qatlamlarida barqaror rivojlanish va tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimida gender tafovutlar va gender stratifikatsiyasi ijtimoiy va pedagogik nuqtayi nazardan o'zini oqlaydi. J.Stenli gender tafovutlarga nisbatan ilmiy nazariyani ilgari suradi. Genderdagi differentsiatsiya shunday jarayonki, unda erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqlar ijtimoiy mazmunga ega bo'ladi va ijtimoiy tasniflash vositasi sifatida qo'llaniladi. Gender roli gender atrofidagi tushunchalardan kelib chiqadigan ijtimoiy umidlar, shuningdek, nutq, o'zini tutish, kiyimlar va imo-ishoralar shaklidagi xatti-harakatlardir.

Gender yondashuv va shaxsga qadriyatli yondashuv asosida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim sohasi hamda yoshlar ma'naviy saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlash eng yaxshi xulosaga kelish uchun to'g'ri savollar berishdan kelib chiqadi. Kuchli tanqidiy fikrlovchilar eng yaxshi harakat yo'nalishini aniqlash uchun ma'lumotni turli nuqtai nazardan tahlil qiladilar. Agar kuchli tanqidiy fikrlash qobiliyatingiz bor deb o'ylamasangiz, tashvishlanmang.

XULOSA





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Oliy ta'limda talaba qizlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda gender yondashuvni qo'llash muhim pedagogik va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Gender tenglikka asoslangan ta'lim muhiti talaba qizlarning o'z fikrini erkin ifoda etishi, mustaqil qaror qabul qilishi va faol intellektual ishtirokini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanish, o'qituvchilarning gender sezgirlikini oshirish, shuningdek, o'quv dasturlarini gender nuqtai nazaridan boyitish talaba qizlarning analitik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini samarali rivojlantiradi. Bu esa ularning nafaqat akademik muvaffaqiyatiga, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, gender yondashuvni ta'lim tizimiga keng joriy etish orqali jamiyatda mavjud stereotiplarni kamaytirish, teng imkoniyatlarni ta'minlash va intellektual salohiyatdan to'liq foydalanish imkoniyati yaratiladi. Natijada, barkamol, mustaqil fikrlaydigan va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b.
2. "Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika (darslik) -T.: 2009
3. Mavlonova R. va boshqalar. . Ijtimoiy pedagogika (o'quv qo'llanma) -T.: 2009
4. Begmatov A., Quraev M. Ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalari. T.: OPI to'plami. 2008
5. Davletshin M.G. va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. - T.: Tarbiyachi, 1997. -134 b.
6. Yo'ldoshev J./. "Ta'lim yangilanish yo'lida". - T.: Tarbiyachi. 2000.





THE EFFECTIVENESS OF THE COMMUNICATIVE APPROACH IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING AND THE INTEGRATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES

Elmurodov Davronbek Xolmurod o'g'li

Trainee Lecturer, Department of Russian Language and Literature, Faculty of
Philology Jizzakh State Pedagogical University

Abstract

In the context of modern globalization, improving the effectiveness of foreign language teaching has become one of the most important educational challenges. This article comprehensively analyzes the theoretical foundations of the communicative approach, its practical effectiveness, and the opportunities for expanding its potential through the integration of digital technologies. The communicative approach views language primarily as a tool for active communication and focuses on developing learners' communicative competence. Unlike traditional grammar-based methods, it prioritizes activities and tasks based on real-life situations and authentic communication. Digital technologies—including interactive learning platforms, artificial intelligence-based applications, virtual reality tools, and online collaborative environments—provide new opportunities to make the communicative approach more effective, engaging, and adaptable. Based on empirical research findings, international experiences, and applications within the context of Uzbekistan, the article examines the advantages, challenges, and future prospects of digital integration in the development of communicative competence. The study concludes that combining modern digital tools with the communicative approach is one of the most effective ways to improve the quality of foreign language education, enhance learner motivation, and develop practical language skills required for real-world communication.

Keywords





communicative approach, foreign language teaching, digital technologies, communicative competence, virtual reality, artificial intelligence, interactive learning, language learning platforms.

**XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV
YONDASHUVNING SAMARADORLIGI VA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARNING INTEGRATSIYASI**

Elmurodov Davronbek Xolmurod o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti, filologiya fakulteti, rus tili va adabiyoti
kafedrası stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o‘qitishning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqola kommunikativ yondashuvning nazariy asoslarini, amaliy qo‘llanish samaradorligini va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali uning imkoniyatlarini kengaytirish masalalarini atroflicha tahlil qiladi. Kommunikativ yondashuv tilni faol muloqot vositasi sifatida ko‘rib chiqib, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, an‘anaviy grammatik-qoidalarga asoslangan usullardan farqli o‘laroq, real hayotiy vaziyatlarga yo‘naltirilgan mashqlarni ustuvorlashtiradi. Raqamli texnologiyalar – interaktiv platformalar, sun‘iy intellekt asosidagi ilovalar, virtual reallik vositalari va onlayn hamkorlik muhitlari – kommunikativ yondashuvni yanada samarali va moslashuvchan qilish imkonini beradi. Maqolada empirik tadqiqotlar natijalari, xalqaro tajribalar va O‘zbekiston kontekstidagi qo‘llanishlar asosida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda raqamli integratsiyaning afzalliklari, qiyinchiliklari va istiqbollari yoritiladi. Natijada, xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy raqamli vositalarni kommunikativ yondashuv bilan uyg‘unlashtirish o‘quv jarayonining sifatini oshirish, motivatsiyani kuchaytirish va o‘quvchilarning amaliy til ko‘nikmalarini rivojlantirishning eng samarali yo‘li ekanligi ta’kidlanadi.





JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH

VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Kalit soʻzlar: kommunikativ yondashuv, xorijiy tillarni oʻqitish, raqamli texnologiyalar, nutqiy kompetensiya, virtual reallik, sunʼiy intellekt, interaktiv oʻqitish, til oʻrganish platformalari.

Zamonaviy jamiyatning globallashtirish jarayonlari va xalqaro hamkorlikning kuchayishi sharoitida xorijiy tillarni samarali oʻqitish masalasi nafaqat taʼlim tizimi, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Kommunikativ yondashuv bu borada markaziy oʻrin tutadi, chunki u tilni statik qoidalar toʻplami sifatida emas, balki real muloqot vositasi sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuvning asosiy printsiplari – oʻquv jarayonini oʻquvchilarning haqiqiy kommunikativ ehtiyojlariga moslashtirish, yaʼni tinglash, gapirish, oʻqish va yozish koʻnikmalarini integrallashgan holda rivojlantirishdan iborat. Anʼanaviy usullardan farqli oʻlaroq, kommunikativ yondashuv grammatika va lugʻatni alohida oʻrgatish oʻrniga ularni tabiiy nutqiy faoliyat doirasida qoʻllashga urgʻu beradi, bu esa oʻquvchilarning tilga boʻlgan motivatsiyasini oshiradi va oʻzlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivoji kommunikativ yondashuvning imkoniyatlarini keskin kengaytirdi. Internet-platformalar, mobil ilovalar, sunʼiy intellektga asoslangan suhbatbotlar va virtual reallik muhitlari oʻquvchilarga doimiy amaliyot oʻtkazish, xatolarni tezkor tuzatish va turli madaniy kontekstlarda muloqot qilish imkonini beradi. Masalan, Duolingo, Babbel yoki oʻziga xos sunʼiy intellekt tizimlari orqali oʻquvchilar individual traektoriya boʻyicha oʻqishlari mumkin, bu esa kommunikativ mashqlarni shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirishga yordam beradi. Virtual reallik texnologiyalari esa haqiqiy hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qilib, oʻquvchilarda tilni qoʻllashda ishonchni oshiradi va til oʻrganishdagi psixologik toʻsiqlarni bartaraf etadi.

Empirik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, kommunikativ yondashuvni raqamli vositalar bilan birlashtirish oʻquv natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Xususan, hamkorlikdagi onlayn loyihalar, video-konferensiyalar va real vaqt rejimida





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

suhbatlashish imkoniyati o'quvchilarning gapirish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samara beradi. O'zbekiston ta'lim muassasalarida ham raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish bo'yicha muayyan tajribalar mavjud. Biroq, texnologik ta'minot, o'qituvchilarning raqamli savodxonligi va internet infratuzilmasi kabi muammolar hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Shu bilan birga, raqamli integratsiya o'quv jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilish, o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Kommunikativ yondashuvning samaradorligi til o'rganishning ijtimoiy va madaniy jihatlarini hisobga olishda ham namoyon bo'ladi. Raqamli muhitlar orqali o'quvchilar turli madaniyatlar vakillari bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lib, bu nafaqat til ko'nikmalarini, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantiradi. Sun'iy intellekt tizimlari o'quvchilarning nutqini tahlil qilib, individual tavsiyalar berishi, talaffuzni takomillashtirish va lug'at boyligini oshirishda muhim yordam ko'rsatadi. Bundan tashqari, katta ma'lumotlar tahlili (big data) o'qituvchilarga o'quv jarayonini monitoring qilish va zarur tuzatishlarni o'z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishda ayrim qiyinchiliklar mavjud. Ekran vaqti ortishi, axborot ortiqchaligi va texnologik qaramlik kabi muammolar o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun, kommunikativ yondashuvni raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirishda muvozanatni saqlash, o'qituvchining rolini o'zgartirish (o'qituvchi – fasilitator va murabbiy sifatida) va gibrid o'qitish modellarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston kontekstida milliy ta'lim standartlariga mos ravishda raqamli resurslarni yaratish va o'qituvchilarni malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuv raqamli texnologiyalar bilan birgalikda zamonaviy ta'limning eng samarali strategiyasini tashkil etadi. Bu yondashuv o'quvchilarda nafaqat til ko'nikmalarini, balki tanqidiy fikrlash, mustaqillik va madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Kelgusida





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va immersiv texnologiyalarning yanada chuqur integratsiyasi til o'qitish usullarini tubdan o'zgartirishi kutilmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida bu yo'nalishdagi izlanishlar va amaliy ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash xorijiy tillarni o'rganish sifatini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi materiallari (2020–2025).
2. Baxriddinova, D. A. (2023). Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitishning zamonaviy usullari. Ta'lim innovatsiyalari.
3. Qodirova, G. (2024). Kommunikativ yondashuv va interaktiv platformalar. Xorijiy tillar ta'limi jurnali.
4. Thomas, M., Reinders, H., & Warschauer, M. (Eds.). (2020). Contemporary Computer-Assisted Language Learning. Bloomsbury.
5. Additional sources from Language Learning & Technology, Computer Assisted Language Learning journals (2022–2026).





COMPARATIVE ANALYSIS OF TRADITIONAL AND MULTIMEDIA-BASED GRAMMAR LESSONS

Ochilova Mohigul Ulugʻbek qizi

Independent Researcher Uzbekistan State World Languages University

E-mail: mohigulachilova@gmail.com

Annotation

This article presents a comparative analysis of traditional teaching methods and multimedia-based grammar lessons. The study compares the effectiveness of both approaches in teaching English grammar to 9th and 10th grade students, examining their impact on student motivation and learning outcomes. The article discusses the opportunities and limitations of multimedia tools in grammar education, as well as practical recommendations for their effective use in the educational process.

Keywords: multimedia tools, grammar education, motivation, traditional teaching, comparative analysis, English language, grades 9-10.

AN'ANAVIY VA MULTIMEDIALI GRAMMATIKA DARSLARINING QIYOSIY TAHLILI

Ochilova Mohigul Ulugʻbek qizi

Mustaqil izlanuvchi, Oʻzbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada an'anaviy o'qitish usullari va multimedia vositalariga asoslangan grammatika darslarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot 9-10-sinf o'quvchilarida ingliz tili grammatikasini o'rgatishda ikkala yondashuv samaradorligini, o'quvchi motivatsiyasiga ta'sirini va o'quv natijalarini solishtiradi. Maqolada multimedia vositalarining grammatika ta'limidagi imkoniyatlari va cheklovlari, shuningdek ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: multimedia vositalari, grammatika ta'limi, motivatsiya, an'anaviy o'qitish, qiyosiy tahlil, ingliz tili, 9-10-sinflar.





1. KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o'qituvchilar oldida yangi imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, ingliz tili grammatikasini o'rgatishda an'anaviy metodlardan multimedia vositalariga o'tish masalasi ko'plab pedagogik tadqiqotlarning diqqat markazida turibdi.

9-10-sinf o'quvchilari — bu o'spirinlik davrining muhim bosqichida turgan, o'z shaxsiyatini shakllantiruvchi va intellektual jihatdan faol rivojlanayotgan yoshlar. Aynan shu davrda ingliz tili grammatikasini o'rganishga bo'lgan munosabat, motivatsiya va qiziqish darajasi keyingi til savodxonligini belgilab beradi. Demak, o'qituvchi tomonidan tanlangan metod va vositalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — an'anaviy va multimediali grammatika darslarining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish, ularning o'quvchi motivatsiyasi hamda o'quv samaradorligiga ta'sirini solishtirish orqali zamonaviy o'qituvchi uchun amaliy yo'nalishlar ishlab chiqishdan iborat.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI

An'anaviy grammatika ta'limi haqida ko'plab fundamental tadqiqotlar mavjud. Krashen (1982) o'z «Monitor Modeli»da grammatik qoidalarni ongli o'rganish va til o'zlashtirish o'rtasidagi farqni asoslab berdi. Uning ta'kidlashicha, faqat grammatik qoidalarni yodlash kommunikativ malakani ta'minlamaydi.

Multimedia ta'lim nazariyasida Mayer (2001) «Kognitiv Multimedia Ta'limi» nazariyasini ilgari surdi. Ushbu nazariyaga ko'ra, so'z va tasvirning birgalikda qo'llanilishi o'quv materialini anglash va eslab qolishni sezilarli darajada oshiradi. Bu tamoyil zamonaviy multimediali darslarning asosini tashkil etadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida esa Yo'ldoshev va Usmonov (2018) kabi olimlar multimedia vositalarining ona tili va chet tili ta'limidagi rolini o'rganib, ularning





samaradorligi yuqori ekanini aniqlashgan. Milliy o'quv dasturlarida ham raqamli resurslarga alohida o'rin berilayotgani buning dalilidir.

Xalqaro tadqiqotlar (Chapelle, 2001; Warschauer & Healey, 1998) kompyuter yordamidagi til ta'limi (CALL — Computer-Assisted Language Learning) sohasida katta tajriba to'planganini ko'rsatmoqda. Ushbu tadqiqotlar multimedia interaktivligining o'quvchi ishtirokini oshirishda, ayniqsa grammatik mavzularni o'rganishda, muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot Toshkent shahridagi 47-sonli umumta'lim maktabining 9- va 10-sinf o'quvchilari (N=64, o'g'il bolalar — 30, qiz bolalar — 34) ishtirokida 2023-2024 o'quv yilida o'tkazildi. O'quvchilar ikkita guruhga bo'lindi: nazorat guruhi (n=32) an'anaviy dars usulida, tajriba guruhi (n=32) esa multimediali ta'lim muhitida o'qidi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: grammatik bilimlarni baholash uchun oldindan va keyindan o'tkaziladigan testlar; motivatsiyani o'lchash uchun Gardner va Lambert (1972) tomonidan ishlab chiqilgan «Instrumental va Integrativ Motivatsiya» so'rovnomasi; o'quvchilarning kuzatuvlari hamda o'qituvchi suhbatlari. Ma'lumotlar SPSS 23.0 dasturida statistik tahlil qilindi.

Multimediali ta'lim guruhida quyidagi vositalardan foydalanildi: PowerPoint va Canva taqdimotlari, YouTube-dan olingan autentik video materiallar, Kahoot! va Quizlet ilovalarida interaktiv o'yinlar, grammatika animatsiyalari va infografiklar. An'anaviy guruhda esa darslik, doska, ko'rgazmali qurollar va og'zaki izoh usullaridan foydalanildi.

4. QIYOSIY TAHLIL NATIJALARI

4.1. Asosiy farqlar jadvali





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Mezon	An'anaviy dars	Multimediali dars
O'quv materiali	Darslik, doska, chizmalar	Video, animatsiya, interaktiv kontent
O'quvchi ishtiroki	Ko'pincha passiv tinglovchi	Faol ishtirokchi (gamifikatsiya)
Motivatsiya darajasi	O'rtacha (so'rovnoma: 3.1/5)	Yuqori (so'rovnoma: 4.2/5)
Grammatik bilim o'sishi	Pre-test: 54% → Post-test: 69%	Pre-test: 53% → Post-test: 78%
Materiallarni eslab qolish	2 hafta o'tgach: 61%	2 hafta o'tgach: 74%
Dars tayyorlash vaqti (o'qituvchi)	30-40 daqiqa	60-90 daqiqa
Texnik imkoniyatga bog'liqlik	Minimal	Yuqori (internet, kompyuter)
Individual yondashuv	Cheklangan	Keng (turli o'rganish uslublari)

4.2. Motivatsiya ko'rsatkichlari tahlili

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, multimediali guruh o'quvchilari ingliz tili grammatikasini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqda nazorat guruhiga nisbatan sezilarli ustunlik qildi. Jumladan, «Darsdan keyin mustaqil grammatika mashqlari bajarish





ishtiyoqi» ko'rsatkichi an'anaviy guruhda 38% bo'lsa, multimediali guruhda bu raqam 67% ni tashkil etdi.

Ayniqsa qiziqarli holat shundaki, o'g'il o'quvchilar o'rtasida motivatsiya farqi yanada yaqqol ko'zga tashlandi. An'anaviy guruh o'g'il o'quvchilarining motivatsiya o'rtacha bahosi 2.8/5 bo'lgan bo'lsa, multimediali guruhda 4.1/5 ga etdi. Bu ko'rsatkich o'qituvchilar tomonidan ham qayd etildi: «Kahoot! o'yinlari paytida avval passiv bo'lgan o'quvchilar ham faol qatnashishni boshladilar.»

4.3. Grammatik bilimlarni o'zlashtirishga ta'sir

Ikkala guruh bir xil grammatik mavzularni (Present Perfect, Passive Voice, Conditional sentences) o'rgandi. Yakuniy test natijalariga ko'ra, multimediali guruh o'rtacha 78% to'g'ri javob berdi, an'anaviy guruh esa 69% natija ko'rsatdi. Bu farq statistik jihatdan muhim hisoblanadi ($p < 0.05$, t-test).

Shu bilan birga, ikki hafta o'tgach o'tkazilgan «Eslab qolish testi» (retention test) da multimediali guruh 74% ni saqlab qoldi, an'anaviy guruh esa 61% ga tushdi. Bu ko'rsatkichlar multimedia vositalarining nafaqat qisqa muddatli, balki uzoq muddatli xotiraga ham ijobiy ta'sir qilishini tasdiqlaydi.

5. MUHOKAMA

5.1. An'anaviy darsning kuchli tomonlari

An'anaviy grammatika darslari o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Birinchidan, bu usul maktablarda keng tarqalgan va o'qituvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilgan. Ikkinchidan, texnik vositalar bo'lmasa ham samarali o'tkazish mumkin. Uchinchidan, yuzma-yuz muloqot orqali o'qituvchi o'quvchining tushunish darajasini bevosita kuzatib, tezda tuzatish kiritishi mumkin.

Bundan tashqari, an'anaviy yondashuv grammatik qoidalar tizimini izchil va ketma-ket tushuntirishga qulay. Induktiv va deduktiv metodlarni erkin qo'llash imkoniyati o'qituvchiga dars maqsadiga qarab yondashuv tanlash erkinligini beradi.

5.2. Multimediali darsning afzalliklari va cheklovlari





Tadqiqot natijalariga ko'ra, multimedia vositalari o'quvchi motivatsiyasini oshirishda va materialni eslab qolishda sezilarli afzallik ko'rsatdi. Buning asosiy sababi sifatida «Ko'p kanalli o'rganish» (multimodal learning) tamoyilini keltirish mumkin: ko'rish, eshitish va interaktiv amaliyot bir vaqtda ishlaganda materialni o'zlashtirish chuqurlashadi.

Biroq, multimediali darsning o'z cheklovlari ham mavjud. Dars tayyorlash uchun ko'proq vaqt kerak; texnik muammolar (internet uzilishi, qurilma yetishmasligi) darsni to'xtatib qo'yishi mumkin; ba'zi o'quvchilar interaktiv o'yinlarning o'yin tomoniga ko'proq e'tibor berib, grammatik mazmunni ikkinchi o'ringa surib qo'yishlari kuzatildi.

5.3. Aralash yondashuvning maqsadga muvofiqligi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ikki yondashuvning birgalikda qo'llanilishi (blended/hybrid approach) eng maqbul yo'l hisoblanadi. An'anaviy metodning izchilligi va tizimlilikini multimedia vositalarining motivatsion kuchi bilan uyg'unlashtirganda, o'quvchi ham qoidani tushunadi, ham uni qiziqish bilan o'rganadi. Masalan, yangi grammatik mavzu avval tushuntirib berilsa, keyin Kahoot! orqali mustahkamlansa — samaradorlik sezilarli oshadi.

6. XULOSALAR

Ushbu tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi:

1. Multimediali grammatika darslari o'quvchi motivatsiyasini an'anaviy darslarga nisbatan 35% ga yuqori ko'rsatdi (4.2/5 va 3.1/5).
2. Grammatik bilimlarni o'zlashtirish darajasi multimediali guruhda 78%, an'anaviy guruhda 69% tashkil etdi.
3. Eslab qolish ko'rsatkichi ham multimediali guruhda yuqori bo'lib, 2 haftadan keyin 74% saqlanib qoldi.
4. An'anaviy yondashuv texnik ta'minot talab qilmasligi va tizimli tushuntirish jihatidan afzal.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

5. Aralash (blended) yondashuv ikkala usulning kuchli tomonlarini birlashtirgani uchun eng maqbul model sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chapelle, C. A. (2001). Computer Applications in Second Language Acquisition. Cambridge University Press.
2. Gardner, R. C., & Lambert, W. E. (1972). Attitudes and Motivation in Second Language Learning. Newbury House.
3. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
